

Akademik Abdusattor Abdukarimovga 80 yoshda!

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi Abdukarimov Abdusattor Abdukarimovich 1942-yil 4-aprelda Toshkent viloyati Chinoz tumani tug'ilgan.

Bugungi sana munosabati bilan O'zbekiston Republikasi Fanlar akademiyasi Genomika va bioinformatika markazida Markaz xodimlari, akademikning shogirdlari, hamkasblari ishtirokida tantanali tadbir o'tkazildi.





Tadbirda so'zga chiqqanlar akademikning hayot yo'li, ilmiy faoliyati, yaratgan ilmiy maktabi haqida gapirib berdilar va olimni qutlug' 80 yoshi bilan qutladilar.

Ma'lumot o'rnidagi: akademik Abdurakov Abdusattor O'zR FA Genetika va o'simliklar zksperimental biologiyasi institutining tashkilotchilaridan biri va bu Institutning birinchi direktori bo'lgan. 2012-yildan boshlab FA Genomika va bionformatika markazida ishlamoqda.

A.A. Abdurakov rahbarligida respublikamizda ilk bor molekulyar biologiya laboratoriysi tashkil qilindi. Bu yerda faol ijodiy muhit yaratishga erishildi va saraton bilan zararlangan hamda normal hujayralarda tireoid gormonlar tomonidan genetik jarayonlarni regulyatsiyasi bo'yicha chuqr nazariy tadqiqotlar olib borildi. Uning bu yo'nalishdagi maqolalari majmuasi 1983-yilda AQShning Academic Press nashriyotida chop etilgan "Regulation of the cell activity" kitobiga kiritilgan.

A. Abdurakov O'zR FA Genetika instituti tarkibida "Geninmar" gen injenerlik markazi tashkil qildi va bu bilan an'anaviy g'o'za genetikasi, selektsiyasi, molekulyar biologiyasi usullarini g'o'za molekulyar genetikasi yutuqlari bilan bog'lab yangi g'o'za navlari selektsiyasi jarayonini uyuştirish uchun imkoniyat yaratdi.

A. Abdurakov "Nolegal ko'knori ekinlarini biologik xavfsiz agent vositasida yo'qotish" xalqaro ilmiy dasturiga rahbarlik qildi. Bu sohada yaratilgan yangi biotexnologiya O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'izistonda aprobatsiyadan muvaffaqiyatli o'tdi hamda BMTning giyohvandlikka qarshi kurashish qo'mitasi tomonidan yuqori baholandi.

Eng yuksak talablarga javob beraoladigan yosh kadrlar salohiyatini yaratish bo'yicha ishlar A. Abdurakovning doimiy diqqat markazidadir. Taniqli olim, fanni rivojlantirishning va yetuk ilmiy kadrlar tayyorlashning fidoysi, molekulyar biologiya va molekulyar genetika sohalarida, hamda bu fanlarga

asoslangan biotexnologiyalar yaratishda ilmiy ommaga keng tanilgan maktab yaratdi. Hozirgi kungacha 20 dan ortiq mutaxassislarimiz dunyoning AQSh, Avstriya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Shveytsariya, Janubiy Koreya, Rossiya, Hindiston, Xitoy va Ispaniya kabi davlatlarning genomika va biotexnologiya markazlarida malaka oshirdilar, ushbu markazlar bilan ilmiy aloqalarni yo'lga qo'ydilar va shu bilan Respublikada fanning rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shishmoqda.

Akademik A.Abdukarimov "Genom texnologiyalari markazi" asoschisi. Ayni paytda akademik rahbarlik qilayotgan ushbu markazda DNK-markerlarga asoslangan selektsiya (MAS) texnologiyalar yaratilgan va ushbu markerlar yordamida dunyoda birinchilardan bo'lib g'o'zada tola rivojlanishi genlarini istiqbolli g'o'za navlariga ko'chirib o'tkazishda zamonaviy selektsiya usullari qo'llanilmoqda. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi intellektual mulkini himoya qilishda yuridik hujjat hisoblanuvchi o'zbek g'o'za germoplazmasi kolleksiysi liniya va navlarining molekulyar-genetik pasportlari yaratildi.

O'zbekistonda ilk bor gen-nokaut texnologiyasidan foydalanib ildiz tizimi yaxshi rivojlangan hamda tolasi uzaygan yuqori sifatli va tezpishar g'o'za transgen liniyalari yaratildi.

Shu yo'naliш bo'yicha olingen ilmiy natijalar asosida bir qator ilmiy maqolalar nufuzli halqaro ilmiy jurnallarda chop etildi

Akademik A.Abdukarimov rahbarligida olib borilayotgan ushbu ishlar g'o'za va boshqa qishloq xo'jalik ekinlarining yangi navlarini yaratish jarayonini o'ta tezlatadi va seleksionerlarning imkoniyatlarini bir necha barobar oshiradi.

A.Abdukarimov "Genom texnologiyalari markazi" qoshida molekulyar markerlar bo'yicha halqaro trening markazi tashkilotchisi. Shu kunga qadar ushbu markazda O'zbekiston, Kozog'iston, Qирг'изистон, Turkmaniston va Tojikiston davlatlaridan 30 dan ziyod yosh olimlarning treningi amalga oshirildi. Bu A.Abdukarimov rahbarlik qilayotgan laboratoriyaning ulkan ilmiy salohiyati belgilardan biri.

Abdukarimov 18 ta fan nomzodi, to'rt nafar fan doktori tayyorladi. A.Abdukarimov hamkorligida 300 dan ortiq ilmiy ishlar chop etilgan, ular qatorida 1 ta monografiya, 2 ta darslik, 24 ta patent.

Abdukarimov shogirdlari bilan yozgan ilmiy maqolalar mahalliy va nufuzli xorijiy (Amerika, Frantsiya, Germaniya, Rossiya, Ukraina) ixtisoslashgan ilmiy jurnallarida nashr etilgan.

Bugungi kunda A.Abdukarimov O'zbekistonda biotexnologiyani rivojlantirish Kontseptsiyasining shakllanishiga xissasini qo'shgan.

Doimo atrofiga iste'dodli yoshlarni yig'a olgan yetuk olim sifatida o'zining tashkilotchilik va yuksak insoniy fazilatlari bilan respublika va xorijiy olimlar hurmatini qozongan.

2021-yilda davlatimizning yuksak muokofti "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlangan.

Akademik Abdusattor Abdukarimovni qutlug' 80 yoshi bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nomidan tabriklaymiz, ularga mustahkam sog'lik, kuch-quvvat, ilm-fan ravnaqi va kelajak avlod tarbiyasi yo'lida hech qachon charchamasliklarini tilab qolamiz!